

**O‘ZBEKISTONDA FOYDA SOLIG‘INI HISOBLASH USULLARI**

*Sirojiddin Ismaylov Isoqovich  
Qulmatova Durdona Hasan qizi  
Bank-moliya akademiyasi magistrantlari*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada O‘zbekistonda foyda solig‘i, uning stavkalari, imtiyozlar, to‘lash usullari, soliq solinadigan bazani hisoblash, byudjetga to‘lanadigan soliq summasini qanday hisoblash va foyda soli‘gini hisoblashning bugungi yangi tartiblarixususidagi fikrlar ifoda etilgan.

**Kalit so‘zlar:** mablag‘, soliq, foyda solig‘, norezidentlar, stavka, soliq bazalari.

**Аннотация:** в данной статье изложены мнения о характере современных новых процедур расчета налога на прибыль, его ставок, льгот, способов оплаты, налоговой базы, исчисления суммы налога, уплачиваемого в бюджет, расчета налога на прибыль в Узбекистане.

**Ключевые слова:** налог, налог на прибыль (налог на прибыль), нерезиденты, ставка, налоговые базы.

**Annotation:** this article expresses the views on profit tax in Uzbekistan, its rates, benefits, methods of payment, calculation of the tax base, how to calculate the amount of tax paid to the budget and today's new procedures for calculating profit tax.

**Keywords:** funds, tax, profit tax, non-residents, rate, tax bases.

Davlat faoliyatining barcha yo‘nalishlarini mablag‘ bilan ta‘minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliq tizimini tartibga solish va mukammallashtirish moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat budjeti daromadlarini shakllantirish soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta‘sir etuvchi usuli hisoblanadi. Davlatning mavjudligi soliqlar bilan uzviy bog‘hq, chunki soliqdan tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqilligining asosiy manbayi hisoblanadi.

O‘zbekiston respublikasi soliq kodeksining XII bo‘limida foyda solig‘i va 42-bob. Soliq to‘lovchilar, soliq solish obyekti va soliq bazasi, 294-modda. Soliq to‘lovchilar

Quyidagilar foyda solig‘ining soliq to‘lovchilari (bundan buyon ushbu bo‘limda soliq to‘lovchilar deb yuritiladi) deb e‘tirof etiladi:

- 1) O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar (bundan buyon ushbu bo‘limda yuridik shaxslar deb yuritiladi);
- 2) O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshiradigan,

yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari (bundan buyon ushbu bo‘limda faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi norezidentlar deb yuritiladi);

3) O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromadlar oluvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar;

4) soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchilari bo‘lgan yuridik shaxslar;

5) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlari bir milliard so‘mdan ortiq bo‘lgan yoki o‘z ixtiyori bilan foyda solig‘ini to‘lashga o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;

6) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnoma) doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo‘yicha oddiy shirkatning ishonchli shaxsi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari (bundan buyon ushbu bo‘limda konsolidatsiyalashgan guruh ishtirokchilari deb yuritiladi) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘ining mazkur guruh mas’ul ishtirokchisi tomonidan hisoblab chiqarish uchun zarur bo‘lgan qismi bo‘yicha soliq to‘lovchilarning majburiyatlarini bajaradi.

Ushbu Kodeksning 36-moddasi to‘qqizinchi qismiga muvofiq agent vazifalarini amalga oshiruvchi jismoniy shaxs, ushbu modda birinchi qismining 2-bandiga muvofiq soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi.

Agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, aylanmadan soliq to‘lovchi shaxslar soliq to‘lovchilar hisoblanmaydi.

Foyda solig‘ining hisob-kitobi ortib boruvchi yakun bilan hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etish muddatida taqdim etiladi.

Foyda solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlarning summasini aniqlash uchun hisobot choragi birinchi oyining 10-kunigacha taxmin qilinayotgan soliqsolinadigan foyda va soliq stavkasidan kelib chiqib hisoblangan foyda solig‘ining summasi haqida ma’lumotnoma taqdim etiladi.

Yuridik shaxslardan to‘lov manbaida olinadigan foyda solig‘i hisob-kitobi to‘lov amalga oshirilgan hisobot davri tugagandan keyin 25 kundan kechiktirmay taqdim etiladi.

Foyda solig‘i qaysi muddatlarda to‘lanadi? Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lash quyidagicha amalga oshiriladi: hisobot choragida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydasi eng kam ish haqining 200 baravaridan oshadigan soliq to‘lovchilar ushbu foyda va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan joriy to‘lovlar summasining 1/3 qismini har oyning 10-kunidan kechiktirmay to‘laydi;

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lash hisobkitoblarni topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi. Dividendlar va foizlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi norezidentlariga to'lanadigan daromadlar bo'yicha yuridik shaxslardan to'lov manbaida olinadigan foyda solig'i daromadlarni to'lash sanasidan kechiktirmay budjetga to'lanadi.

Budjetga to'lanadigan soliq summasi qanday hisoblanadi? Budjetga to'lanishi lozim bo'lgan foyda solig'i summasi quyidagi tartibda aniqlanadi.

$$FS=SSB*SS$$

**Bu yerda:**

FS - budjetga to'lanadigan soliq summasi;

SSB – soliq solinadigan baza;

SS – soliq stavkasi;

Foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar Soliq kodeksining 158-159- moddalari hamda boshqa normativ-huquqiy xujjatlar bilan belgilangan.

#### STAVKALAR (% da)

	2018-yildan amalda	01.01.2019-yildan
Bazaviy stavka	14%	12%

Soliqni hisoblash soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Soliq solinadigan baza quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$SSB=STF+TPZ+TMM+IHF+CHX-DF-I$$

Bu yerda:

**STF** – soliq to'langunga qadar foyda (zarar) (“Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot” - 2-sonli shaklning 240-satri);

**TPZ** – tovar (ish, xizmat)larni tannarxidan past baholarda realizatsiya qilishdan va tekin berishdan zararlar;

**TMM** – soliq to'lovchi tomonidan boshqa shaxslardan tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, ishlar va xizmatlar;

**IHF** – davlatning ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara haqining eng kam stavkalaridan kelib chiqib hisoblangan ijara haqi miqdorining shartnomada belgilangan ijara haqi miqdoridan oshgan summasi;

**CHX** – chegirilmaydigan xarajatlar (soliq solinadigan bazaga kiritiladigan xarajatlar);

**DF** – olingan (olinishi lozim bo'lgan) dividendlar va foizlar;

**I** – imtiyozlar va kamaytiriladigan summalar.

Bunda, soliq to'langunga qadar foydaning tarkibida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 129-moddasi uchinchi qismiga muvofiq soliq to'lovchining daromadi sifatida qaralmaydigan daromadlar hisobga olingan bo'lsa, ushbu summalar soliq solinadigan foydadan chegirib tashlanadi.



Soliq kodeksining 146-moddasiga muvofiq hisobot davrida soliq solinadigan bazadan chegirilmaydigan, biroq kelgusi hisobot davrlarida soliq solinadigan bazadan chegiriladigan xarajatlar mavjud bo'lsa, ilgari qilingan bunday xarajatlar o'rtasidagi farq soliq solinadigan bazaga kiritiladi.

Foyda solig'ining asosiy elementlari – soliq stavkalari, hisoblash va to'lash tartibi, hisobotni taqdim qilish muddatlari – 2024 yilda o'zgarmadi. Ammo o'zgarishlar ham yo'q emas.

Bo'nak to'lovchilar uchun daromadning ruxsat etilgan miqdori o'zgardi Foyda solig'i bo'yicha har oyda bo'nak to'lovlarini to'lashi lozim bo'lgan tadbirkorlik subyektlari daromadlarining ruxsat etilgan miqdori 5 mlrd so'mdan 10 mlrd so'mgacha oshiriladi. 2024 yilda siz bo'nak to'lovlarini to'laysiz, agarda:

2023 yil uchun kiritilgan tuzatishlarni hisobga olgan holda jami daromad 10 mlrd so'mdan oshgan bo'lsa SK 340-m. 2-q.; korxonangizning daromadi yil davomida 10 mlrd so'mdan oshgan bo'lsa SK 340-m. 8-q.. Shunday vaziyatda bo'nak to'lovlari bunday oshib ketish sodir bo'lgan chorak o'tganidan keyin to'lanadi. Ushbu qoida yangi tashkil etilgan korxonalarga ham taalluqli.

Norezident bo'lgan yuridik shaxslarning aksiyalari bo'yicha dividendlar tarzidagi daromadlari, shuningdek obligatsiyalar bo'yicha foizlar tarzidagi daromadlari bo'yicha imtiyozlar uzaytiriladi 26.07.2022 y. O'RQ-785-son Qonunga muvofiq 483-moddaga – 2022 yil 1 apreldan 2024 yil 31 dekabrgacha bo'lgan davr uchun:

norezident yuridik shaxslarning aksiyalari bo'yicha dividendlar tarzidagi daromadlariga foyda solig'i bo'yicha 5 foiz miqdorida soliq stavkasi qo'llanilishi haqida imtiyoz kiritilgan edi; rezident va norezident yuridik shaxslarning xo'jalik jamiyatlari obligatsiyalari bo'yicha foizlar tarzidagi daromadlari daromad solig'idan ozod etiladi. Imtiyoz muddati 2028 yil 31 dekabrgacha uzaytirilgan.

Kichik biznesni rivojlantirishga yo'naltirilgan kreditlar bo'yicha foizlarga foyda solig'i solinmaydi. Kichik biznesni doimiy qo'llab-quvvatlash kompleks dasturida ishtirok etayotgan tijorat banklarining ushbu dastur doirasida loyihalarga ajratilgan kreditlar bo'yicha daromadlari foyda solig'i soliq bazasidan chegirib qolinadi. Imtiyoz 2024 yil 1 yanvardan 2026 yil 1 yanvargacha amal qiladi SK 483-m. 42-q. Imtiyoz 04.09.2023 PQ-292-son Qarori bilan tasdiqlangan «Yo'l xaritasi» dasturini bajarish doirasida joriy qilingan.

### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi –T.: «Norma» 2020.
2. Юридик шахслардан олинадиган фойда солиғини ҳисоблаб чиқариш ва тўлаш бўйича УСЛУБИЙ ТАВСИЯЛАР.
3. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari–T.:
4. «Norma» 2010.
5. <https://buxgalter.uz/uz/publish/>